ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

QO‘QON XONLIGI DAVRIDAGI MADANIY MEROS: MUZEYLASHTIRISH TAMOYILLARI

Madraximova Gulshanoy Sotiboldiyevna
O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi professori, t.f.n.,dotsent

КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ЭПОХИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА: ПРИНЦИПЫ МУЗЕЕФИКАЦИИ

Мадрахимова Гульшаной Сатыболдиевна
Профессор кафедры национальной гордости и военного патриотизма Академии Вооруженных сил ОР, т.f.n., доцент

CULTURAL HERITAGE OF THE KOKAND KHANATE: PRINCIPLES OF MUSEIFICATION

Madrakhimova Gulshanoy Sotiboldiyevna
Academy of the Armed Forces of Oor National pride and military patriotism professor of the department, t.f.n., associate professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon xonligi davridagi madaniy-axloqiy merosga bo'lgan munosabat, chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan va mustamlaka qilingan davr masalalari yoritilgan. Shuningdek, u ushbu merosning keyingi davrdagi holatini va muzeylashtirish masalalarini tahlil qildi.

Kalit so'zlar: tarixiy meros, muzeyefikatsiya, qiymat, noyob xazina, koloniya, arxiv, kutubxona, madaniy yodgorliklar, tabiatni muhofaza qilish, resurslar mobil ilova, tsivilizatsiya

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы отношения к культурно-нравственному наследию времен Кокандского ханства в период нашествия и колонизации царской Россией. Он также проанализировал состояние этого наследия в более поздний период и вопросы музеефикации.

Ключевые слова: историческое наследие, музеефикация, ценность, редкое сокровище, колония, архив, библиотека, памятники культуры, сохранение, ресурсы мобильное приложение, цивилизация

Annotatsiya. This article describes the cultural heritage of the Karakhanid period. Thus, this measure was aimed at the preservation and museification of ancient monuments.

Keywords: historical heritage, museification, museification, November treasury, mustamlak, archive, qutubhona, cultural relics, mu'faza, resources of mobile, civilization

Kirish. Globallashuv jarayoni ortib borayotgan davrda insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan madaniy va ma'naviy merosni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida madaniy merosimizga nisbatan yuqori darajada e'tibor

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

qaratilib, uni dunyo iqtisodiyotining muhim resurslaridan biri sifatida muhofaza qilish va undan samarali foydalanish zarurligini ustivor vazifa etib belgilangan. Bu milliy qadriyatni dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishining asosiy omillaridan biridir.

Darhaqiqat, yo‘qotilgan madaniy boyliklar o‘rnini to‘ldirib ham, qaytarib ham bo‘lmaydi. Madaniy merosga nisbatan yomon munosabatda bo‘lish bugungi va kelajak avlod hayotining barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi va ma'naviy inqirozga, tarixiy xotiraning buzilishiga, jamiyatning taraqqiyotdan ortda qolishiga olib keladi. Zamonaviy madaniyat rivoji bilan ham, yangi muhim asarlar yaratish bilan ham ularning o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydi, chunki madaniy meros boyliklarimizni jamlash va saqlash - sivilizasiya rivojining asosidir [1].

Manaviy madaniy merosni saqlash uchun mamlakatimizda uning huquqiy asoslari ham ishlab chiqilmoqda. Albata buning uchun yurtimizda muzeylarni yanada takomilashtirish ishlari olib borilishi ham nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-iyunda qabul qilingan «Muzeylar to‘g‘risida»gi O‘RQ-177-son qonuni (2021-yil 26-noyabrda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilingan), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» farmoni, 2022-yil 27-maydagi PQ 261-son «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi «2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 975-son Qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash uchun davlatimiz tomonidan amaliy natijalarga erishilmoqda.

Bu haqida prezidentimiz,- “… Milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho, albatta, xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan holi bo‘lishi zarur” [2], - deya ta'kidlaganlar. Haqiqatan ham O‘zbekistonda tarixiy madaniy merosga yangicha munosabat konsepsiyasini yaratish va uning mohiyatini targ‘ib etish uchun samarali ishlar olib borilmoqda

O‘zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan D. Kuryazova “muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg‘onishi, milliy g‘oyani targ‘ib etish, xalq ongida milliy g‘urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi [3]” – degan fikrni ta'kidlaydi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasi, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikasiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XIX asr ning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi tugatilgandan keyin uning hududlarida Chor Rossiyasi tomonidan ilk muzeylarning tashkil etilishi boshlandi. Chunki madaniy merosga tegishli asori atiqalarni hammasini ham mamlakatimiz hududidan olib chiqib ketishning imkoniyati yo‘q bo‘lgan. Bu yerda kolleksiyalarni birlashtirish va muzey tashkil etish masalasi juda murakkab bo‘lib, ko‘p qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Sababi, chor hokimiyati Turkiston xalqi orasida tarix va madaniyatga oid bilimlarni keng tashviqot qilish hamda ular e'tiborini moddiy va madaniy yodgorliklarga jalb etishni yurtimizda olib borayotgan siyosatiga zid deb hisoblagan. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida muzeylarni boshqarish uchun yagona boshqarma va maxsus muzey qonunchiligi yaratilmagan. Ishni tashkil etishning past saviyasi, muzeylar faoliyatining ilmiy asoslangan yagona tizimi yo‘qligi ko‘zga tashlanar edi[4].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Madaniy yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilishga yaxshi e'tibor qaratilmaganligi sabab, O‘rta Osiyoning, jumladan Qo‘qon xonligining madaniy boyliklari, moddiy va madaniy yodgorliklari, “qimmatbaho buyumlari, nodir qo‘lyozmalari Rossiya va boshqa chet mamlakatlarga olib ketildi” [5]. Bu esa o‘z navbatida yurtimizni madaniy ma'naviy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sirini o‘tkazdi.

O‘rta Osiyodek keng makonda hukm surgan O‘zbek xonliklari, xususan Qo‘qon xonligi XIX-asr o‘rtalariga kelib har tomonlama siyosiy, iqdisodiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan tushkunlikka yuz tutgan edi [6].

Qo‘qon xonligi bosib olinishi davrida (1875-1876) tarix, tabobat, fiqh va diniy ilmlarga oid asarlardan iborat jami 130 dan ortiq qo‘lyozmalar qo‘lga kiritilib, Rossiyaga Imperator Xalq kutubxonasiga yuborilgan.

Bu davrda yana boshqa harakatlar ham boshlandi, ya'ni rus ofiser va generallarining kolleksiya yig‘ishga qiziqishlari ortib, O‘rta Osiyo xalqlari madaniy yodgorliklarini arzon-garov sotib olib, shu yo‘l bilan boylik orttira boshladilar.

XIX asrning birinchi yarmida evropalik olimlar mahalliy xalqlar tarixi, turmushi, diniy e'tiqodi, etnografiyasiga qiziqib, Sharq xalqlarining yozma yodgorliklariga, ayniqsa, tarixiy manbalarga murojaat etish bilan birga ularni o‘zlari bilan olib ketishga uringanlar.

Sharqshunos X. D. Fren 1834 yili O‘rta Osiyodan izlab topish mumkin bo‘lgan Sharq mualliflariga mansub «Yuz asar»ning xronologik ro‘yxatini tuzib chiqdi. Rossiya moliya vazirligi Orenburgdagi bojxonaga ro‘yxatda ko‘rsatilgan qo‘lyozmalarni O‘rta Osiyo shaharlaridan savdogarlar orqali sotib olish va ularni kutubxonalarga topshirishga e'tiborini qaratish haqida farmoyish berdi. Natijada, Sharq xalqlari tarixi va geografiyasiga doir ancha-muncha qo‘lyozmalar to‘planadi. Qo‘lyozmalar to‘plash o‘zbek xonliklarini zabt etish davrida, ayniqsa, tezlashdi.

1853- yili rus qo‘shinlari Qo‘qon xonligiga qarashli Oqmachit qal'asini bosib olganidan to turkman erlari bosib olingungacha (1882) bo‘lgan barcha yurishlar davomida, rus olimlari arxiv, kutubxona va boshqa madaniy yodgorliklarni qo‘lga kiritishni uyushqoqlik bilan olib bordilar[7].

O‘zbekiston hududidagi madaniy meros ob'ektlarini ilmiy asosda o‘rganish, ta'mirlash va tasniflash ishlari XIX- asr oxirlaridan boshlab amalga oshirila boshlandi. Biroq, bu davrda dinga, o‘zga xalqlar madaniyati va tarixiga bo‘lgan munosabat natijasida, ko‘p hollarda esa turli siyosiy mafkuraviy “o‘yinlar” ta'sirida ko‘plab yodgorliklar buzib tashlandi. Bunday holatlardan Qo‘qon xonligi davrida yaratilgan madaniy ma'naviy meros ham chetda qolmadi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining tarixiga, madaniy merosiga nisbatan mustamlaka ma'muriyati tomonidan ishlab chiqilgan siyosatda ikki xil yo‘nalish ko‘zga tashlandi. Ayrim rus sharqshunoslari, ziyoli tabaqa vakillari (Ostroumov, Nalivkin va boshqalar) o‘lkada mustamlaka boshqaruvi o‘rnatilgan dastlabki kezlardan boshlab mahalliy xalqning tarixiga, tarixiy merosiga hurmat bilan qarash, uni o‘rganish g‘oyasi bilan chiqdilar. Lekin mustamlaka ma'muriyati boshida turgan, amalda savodsiz va johil rus harbiy ma'murlari O‘rta Osiyo xalqlarining boy madaniy merosini talon-taroj qilish yo‘lidan bordilar. Ular bu siyosatni mahalliy aholini itoatda saqlashning bir yo‘li sifatida qarashgan[8].

Turkiston o‘lkasi shunchalik boy va rang-barang tarixiy-madaniy merosga ega ediki, ularning barchasini Rossiya hududiga olib chiqib ketishning amalda imkoni yo‘q edi. Ikkinchi tomondan, Rossiyaning o‘zida tarixiy muzeylarning kamligi sababli ham tarixiy-madaniy meros ob'ektlarining katta qismi o‘ta noqulay sharoitda, turli erto‘lalarda saqlanib, ularning bir qismi o‘sha joyda yo‘q bo‘lib ketardi. Uchinchidan, kapitalistik munosabatlar hukmronligi har bir tarixiy yodgorlikka katta

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

qimmatga ega boylik sifatida qarashga majbur etardi. Yuqoridagi sabablar chor Rossiyasining Turkiston o‘lkasidagi ma'muriyatini o‘lkada muzeylar va boshqa madaniy muhofaza ob'ektlari barpo etishga undar edi. Turkiston o‘lkasida dastlabki muzeylar chor Rossiyasi mustamlakasi davrida tashkil etilgan. 1880 yilda Toshkentda tarix muzeyi tashkil etilishi, garchi bu muzey mustamlaka ma'muriyati manfaatlariga, Rossiyaning bosib olingan hududlardagi madaniy rolini bo‘rtirib ko‘rsatishga xizmat qigan bo‘lsada, o‘lka madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Shu tariqa, chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida yurtimizdagi bebaho kitoblar, nodir qo‘lyozmalar, qimmatli buyumlar va badiiy hunarmandchilik yodgorliklari mustamlakachilar tomonidan talandi, ularning katta qismi mustamlaka ma'muriyati, rus generallari, sharqshunos olimlari va boshqa turli shaxslar tomonidan Sankt-Peterburg, Moskva va g‘arbning ko‘pgina mamlakatlariga olib ketildi. Bu holat, ularning hozirgacha tarixiy vatanlariga qaytarilmagani sababli, tabiiyki, olib ketilgan madaniy boyliklardan xalqimizning bevosita bahramand bo‘lish imkoniyatini yo‘qotdi. Ikkinchi tomondan, o‘tmishimizning noyob madaniy merosini, bebaho madaniy yodgorliklarni o‘rganishni, ularni ilmiy tadqiq etishni ancha qiyinlashtirdi [9].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin «O‘zbekistondagi yirik muzey-qo‘riqxonalar bilan bir qatorda Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi va uning shu'balari, ya'ni Hamza uy-muzeyi, Muqimiy hujra muzeyi, Qodirjon Haydarov uy- muzeylari» [10] va boshqa muzeylarda ta'mirlash ishlari olib borildi. Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyidagi arxiv materiallarining ilmiy tahliliga e'tibor qaratilganda, ushbu hududda muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish, tarixiylik va zamonaviylikning uyg‘unligini ta'minlash zarurligi , xorijdan tashrif buyuruvchilarni tarixiy madaniy meros ob'ektlari bilan yanada yaqinroq tanishtirish ishlarini yo‘lga qo‘yishga yanada e'tibor qaratilishi muhim ekanligini ko‘rish mumkin.

Hozirgi davrda jahon muzeyshunosligi amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy mobil ilovalar va platformalarga e'tibor berilsa, ular orasida “CUSEUM” [11] foydalanuvchilari juda ko‘p bo‘lgan mobil dasturlardan hisoblanadi. Muzeylar faoliyatiga oid ijtimoiy tarmoqdardagi fikrlar ham unda tizimlashtirilgan. Ushbu tizimda xorijiy muzeylar birinchi o‘ntaligini tomoshabinlar tashrifi dinamikasi asosida ifodalab, jadval ko‘rinishida taqdim etadi. Ushbu mobil-ilova platformasida O‘zbekiston muzeylari bo‘yicha ma'lumotlar ko‘zga tashlanmaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “muzeyshunoslik imkoniyatlarini kengaytirishda korporativ, xususiy va ekomuzeylarning tashkil etilishi mamlakat muzeyshunosligida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga xizmat qiladi” [12].

Xulosa. Bugungi kunda zamonaviy ilmiy-texnikaviy, madaniy-badiiy jarayonlar, muzeyshunoslik faoliyatiga yangicha g‘oyalarni tatbiq etish asosida muzey ekspozisiyalarining qiyofasi yangilandi. Ekspozisiyalarning elektron variantlari, multimedia mahsulotlari, muzey to‘g‘risidagi ma'lumotlar Internet saytlarida joylashtirilmoqda. Muzeylarga tashrif buyuruvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari asosida muzey ko‘rgazmalari faoliyatiga doir turli mobil ilovalardan samarali foydalanish va ularniing taassurotlari interfaol asosda o‘rganilib, tahlil qilish imkoniyatlari yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi 2008-yil 12-iyunda qabul qilingan «Muzeylar to‘g‘risida»gi O‘RQ-177-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi”, 2018 yil 29 dekabr.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

3. Mirshaxodjaev S.S. O‘zbekiston me'moriy yodgorliklarini saqlash muammolari. Me′morchılık va qurılısh muammoları (ilmiy-texnik jurnal). 2022, №2 (1-qism). B-15-17.
4. Kuryazova D.T. O‘zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati (tarix va o‘lkashunoslik muzeylari misolida).Tarix fan. nom. diss. ...avtoref – Toshkent: O‘zMU, 2009.– B.3.
5. Sodiqova N. Madaniy èdgorliklar xazinasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 33. Shu muallif. Mulki toroj o‘zbegim. Toshkent: Fan – xazina, 1995. – B. 40. Yana qaran Tarix shohidligi va saboqlari. / Mas'ul muharrir D.A.Alimova. Toshkent: Sharq, 2001. – B. 353-401.
6. Abdullaev J.S.Toshkent shaharsozligining evropa me'morchiligi ta'siridagi evolyusion jarayonlari. Me′morchılık va qurılısh muammoları (ilmiy-texnik jurnal). 2022, №2 (1-qism). B-15-17. 35-36.b.
7. https://ziyouz.uz/matbuot. 26.03.2012.
8. Mavlanov O‘.Turkiston o‘lkasining tarixiy-madaniy merosi va muzeylar faoliyati xususida mulohazalar.O‘zbekiston muzeylarining dolzarb muammolari (Halqaro anjuman materiallari). Shahrisabz – 2024.-B.156.
9. Mavlonov O‘., Abduvositova I. Tarixiy-madaniy meros – milliy g‘oyani anglash omili. – Toshkent: Akademiya, 2014. – B. 125-135.
10. Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi va shu'balarining 2007 yilda amalga oshirgan ishlari hisoboti. B.19-23.
11. «Cuseum» – mobil-ilova platformasiga 2014 yilda Brendan Sesko tomonidan asos solingan. 2017 yildan muzey turizmi sohasida turli dasturlar yarata boshlagan. Muzeylar boshqaruvi va kontentidagi individual ekskursiyalar, tomoshabinlar tashrifi, interaktiv dasturlarni umumlashtirgan yagona platforma hisoblanadi (https://en.wikipedia.org/wiki/Cuseum).
12. Muxamedova M. O‘zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan ob'ektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr II-yarmi – XXI acp boshlari). tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati.-B.9-10.